

**RANGLAR MILLIY MADANIY KOD SIFATIDA: QORA RANG  
SEMANTIKASI VA PRAGMATIK TALQINI (INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI  
MATERIALLARI ASOSIDA)**

**Toshtemirova Sitora Ulug‘bek qizi**  
*Qarshi davlat universiteti doktaranti*

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada ranglarning milliy madaniy kod sifatidagi o‘rni zamonaviy tilshunoslik, semiotika va lingvokulturologiya nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda ranglar oddiy estetik yoki fizik hodisa emas, balki jamiyat tomonidan kodlangan, madaniy axborotni uzatuvchi murakkab belgilar tizimi ekanligi asoslab beriladi. Xususan, qora rang semantikasi ingliz va o‘zbek madaniy kontekstida qiyosiy jihatdan ko‘rib chiqilib, uning salbiy konnotatsiyadan ijobiy — jiddiylik, obro‘, hokimiyat va ziyolilik timsoliga siljishi ochib beriladi. Ranglarning belgilovchi va belgilanuvchi komponentlari klassik semiotik model asosida tahlil qilinib, rang semantikasining madaniy-spetsifik va dinamik xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, kiyinish madaniyati misolida ranglarning noverbal kommunikativ vosita sifatidagi pragmatik funksiyalari ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari ranglar semantikasini milliy tafakkur, aksiologik qarashlar va madaniyatlararo muloqot bilan uzviy bog‘liq holda talqin qilish zarurligini tasdiqlaydi.*

***Kalit so‘zlar:** ranglar semantikasi, milliy madaniy kod, qora rang, lingvokulturologiya, semiotika, noverbal kommunikatsiya, pragmatik ma‘no, madaniy konnotatsiya, kiyinish madaniyati*

*Milliy madaniy kod (National Cultural Code) – bu xalqning o‘ziga xos an‘analari, urf-odatlar, tili, tarixi, qadriyatlar va dunyoqarashini ifodalovchi belgilar tizimi bo‘lib, ularni avlodlardan avlodga o‘tishi va boshqa madaniyatlardan ajralib turishini ta‘minlovchi asosiy elementlar majmuasidir. D.Xudoyberganova amerikalik psixolog K.Rapayning “Kodlar ongimizdagi biror-bir tushunchaga bog‘liq bo‘lgan obrazlarni belgilab beradi”, “ma‘lum bir madaniyatda o‘rinlashgan obrazning mazmunini tushunish uchun uning kodini anglash zarur bo‘ladi” kabi fikrlarga asoslanib madaniy kodlarni “madaniyatni tushunish kalitidir, u biror bir shaklda kodlangan madaniy axborotni aniqlash imkonini beradi” deb ta‘riflaydi: “Madaniyat kodlari xususidagi izlanishlarga e‘tibor qaratish chog‘ida turli fikrlarga duch kelamiz, jumladan, ushbu termin muayyan madaniy mazmunni shartli, ramziy va kodlangan tarzda ifodalovchi moddiy yoki ideal belgilar tizimini bildiradi. Madaniyat kodlari inson tomonidan olamni kategoriyalashtirish jarayonining mahsulidir va bunda inson tili madaniy mazmunning eng muhim ifodachilaridan biridir. Madaniyat kodlari tilda, asosan, xalqning obrazli tafakkurini namoyon etuvchi maqol, ibora, turg‘un o‘xshatish, metafora, qarg‘ish, duo va olqishlar kabi lingvomadaniy birliklarda inikos etadi. Madaniyat kodlarida insonlarning moddiy va ma‘naviy olam haqidagi tasavvurlari, milliy tafakkur, aksiologik*

qarashlari yaqqol ko'zga tashlanadi"<sup>33</sup>. Ranglar muayyan millat yoki individual shaxs mentalitetini namoyon qiluvchi olamdagi moddiy, ma'naviy, madaniy tushunchalarni saqlash va keyingi avlodlarga yetkazish, olamning milliy lisoniy, konseptual, diniy va boshqa manzaralarini o'zida aks ettiruvchi ochib beruvchi madaniy kodlardir. Zero, "Madaniy kod insonning ilk ong-shuuridagi tasavvur bo'lib, qadimgi diniy ong shakli sanaladi. Madaniy kodlar biror-bir narsani nomlashning ichki shakli kengayishi bilan tematik guruhlariga ajralib boraveradi. Chunki madaniy kodlar dinamik, ya'ni zamonlar o'tishi bilan o'zgarib yangi shakl-shamoyilga ega bo'ladi. Lekin ularni bog'lovchi madaniy kod o'zgarmasligi mumkin"<sup>34</sup>. Zamonaviy ingliz tilida, jumladan, o'zbek tilida ham bugungi kunda qora rang haqidagi tasavvurlar ijobiylikka siljimoqda. Xususan, moda olamida unga munosabat o'zgargan. "Londonlik uslubchi va "Sizning uslubingizning rangi" kitobining muallifi Devid Zila shunday deydi: "Javoningiz turli rangdagi kiyimlar bilan to'lib-toshgan bo'lsa ham, baribir, siz o'zingizga yoqqan, o'zingizni qulay his qiladigan rangdagi kiyimni boshqalaridan ko'proq kiyasiz. Aynan mana shu rang sizning xarakteringizni ochib beradi". Moda va uslub bo'yicha ekspert Karen Xallernig fikricha, "Qora rang – jiddiy qabul qilinadigan rangdir". Haqiqatan ham, psixologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, qora rangni atrofdagilar obro', hokimiyat, jiddiylik va ziyolilikni bildiradigan rang sifatida qabul qiladi. Shuning uchun Yevropaning ko'plab universitetlarida bitiruv libosi qora rangda. Kiyinishda qora rangni tanlaydiganlar shijoatli, maqsadli, shuningdek, nozikta'b odamlardir. Odatda ular hissiyotga beriluvchan bo'lishadi, ammo ko'pincha buni yashirishga harakat qilishadi. Qora rang ularga boshqalarning e'tiborini tashqi ko'rinishdan shaxsga qaratishga yordam beradi"<sup>35</sup>. Kiyim rangini tanlash tasodifiy did masalasi emas, balki shaxsning ichki psixologik holati va jamiyatga o'zini qanday taqdim etish strategiyasini ifodalovchi noverbal vositadir. Ayniqsa, qora rang kuchli ijtimoiy-semantik yuklamaga ega bo'lib, u jiddiylik, obro', hokimiyat va ziyolilik timsoli sifatida qabul qilinadi. Shu bois rasmiy muhitlarda (masalan, bitiruv liboslarida) aynan shu rang ustunlik qiladi. Qora rangni tanlaydigan insonlar o'zlarini vazmin, maqsadli va ichki hissiyotlarini oshkor qilmaydigan tarzda namoyon etishga intiladilar. Natijada, qora rang tashqi ko'rinishdan ko'ra shaxsning fikri, nutqi va individualligiga e'tibor qaratilishiga xizmat qiladigan psixologik va pragmatik signal vazifasini bajaradi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, ranglar zamonaviy tilshunoslik va semiotika nuqtayi nazaridan oddiy estetik yoki fizik hodisa emas, balki jamiyat tomonidan kodlangan, madaniy axborotni tashuvchi murakkab belgilar tizimidir. Rang belgisining belgilovchi (rangning fizik ko'rinishi) va belgilanuvchi (unga yuklangan ma'no) qismlaridan tarkib topishi klassik semiotik modelga mos keladi va rangni biologik idrok doirasidan madaniy

<sup>33</sup> Xudoyberganova D. Lingvokulturologiyada madaniy kod tushunchasi va talqini//O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2019. – №3. –Б.35

<sup>34</sup> Полвонова С. Маданий коднинг назарий масалалари // <https://journal.fledu.uz/uz/madaniy-kodning-nazarij-masalalari/>

<sup>35</sup> <https://zamin.uz/madaniyat/68277-sevimli-kiyim-ranglari-harakteringizni-oshkor-qiladimi.html>

talqin doirasiga olib chiqadi. Shu bois ranglar orqali inson voqelikni idrok etadi, baholaydi va ijtimoiy munosabatlarda ma'no uzatadi.

Ranglar semantikasi universal va madaniy-spetsifik qatlamlarning uyg'unligida namoyon bo'ladi. Ayrin ranglar biologik va psixofiziologik asosda o'xshash ma'nolarni ifodalashi mumkin bo'lsa-da, ularning asosiy mazmuni muayyan jamiyatning tarixiy tajribasi, diniy qarashlari, urf-odatlar va qadriyatlar bilan belgilanadi. Oq rangning turli madaniyatlarda nikoh, poklik yoki motam ma'nolarini ifodalashi, qizil rangning xavf yoki tantana timsoli bo'lishi, qora rangning esa salbiylikdan jiddiylik va obro' timsoliga siljishi rang ma'nolarining madaniy kontekstga bog'liqligini yaqqol tasdiqlaydi.

Ranglar lingvomadaniy, somatik, predmetli, makon va zamonga oid, biomorf hamda ma'naviy kodlar orqali ko'p qatlamli semantik tuzilishga ega bo'ladi. Ular bir vaqtning o'zida sezgi, emotsiya, ijtimoiy signal va madaniy ramz vazifasini bajaradi. Shu jihat ranglarni nafaqat semiotika, balki pragmalingvistika, kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya doirasida ham muhim tadqiqot ob'ektiga aylantiradi. Ranglar milliy madaniy kodning ajralmas qismi sifatida xalqning dunyoqarashi, aksiologik qarashlari va obrazli tafakkurini o'zida mujassam etadi hamda ularni avlodan-avlodga uzatishda vosita bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy ijtimoiy amaliyot, xususan moda va kiyinish madaniyati ranglarning semantik siljishini yaqqol namoyish etadi. Qora rangning salbiy konnotatsiyadan ijobiy — jiddiylik, obro', ziyolilik, vazminlik timsoliga aylanishi rang ma'nolarining dinamik xarakterga ega ekanini ko'rsatadi. Kiyim rangini tanlash shaxsning ichki psixologik holati va jamiyatga o'zini qanday taqdim etish strategiyasini ifodalovchi noverbal signal sifatida namoyon bo'ladi. Natijada rang, ayniqsa qora rang, tashqi ko'rinishdan ko'ra shaxsning fikri, nutqi va individualligiga e'tibor qaratishga xizmat qiladigan pragmatik vositaga aylanadi.

Demak, ranglarni belgi va madaniy kod sifatida o'rganish til, madaniyat va tafakkur o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni chuqurroq anglash imkonini beradi. Rang semantikasi madaniyatlararo muloqotda to'g'ri talqin qilish, milliy o'ziga xoslikni saqlash va kommunikativ jarayonlarda ma'no uzatish mexanizmlarini tushuntirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiyada madaniy kod tushunchasi va talqini//O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2019. – №3. –Б.35
2. Полвонова С. Маданий коднинг назарий масалалари // <https://journal.fledu.uz/uz/madaniy-kodning-nazariy-masalalari/>
3. <https://zamin.uz/madaniyat/68277-sevimli-kiyim-ranglari-harak>
4. <http://semanticmatching.eu/semantic-matching.html>
5. <http://www.edwardcurry.org/publications>